

Andijon davlat tibbiyot instituti xirurgiya va urologiya kafedrası



Xirurgiya va urologiya kafedrası

Kafedra mudiri tibbiyot fanlar dotsent professor

Nishonov Fozil Nishonovich

Ish vaqti: 7:30 – 17: 00

Tel: +99893-425-55-51

e-mail: jarrohlik@umail.uz

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI XIRURGIYA VA UROLOGIYA KAFEDRASI TARIXI VA FAOLIYATI

Kafedra sayti: [http: agmi.uz// jarrohlik va urologiya/](http://agmi.uz//jarrohlik%20va%20urologiya/).

Kafedra elektron manzili: jarrohlik@umail.uz

Xirurgiya va urologiya kafedrası ADTning eng namunali kafedralaridan biri hisoblanadi. Kafedra bazasi ADTI klinikasining 3-jarrohlik va urologiya bo‘limlarida joylashgan bo‘lib, aholiga rejali va shoshilinch tibbiy yordamini ko‘rsatib kelmoqda. Kafedrada “Davolash ishi”, “Kasbiy ta‘lim” va “Oliy hamshiralik ishi” fakultetlarining talabalari hamda “Jarrohlik” “Urologiya” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura talabalari hamda klinik ordinatorlar tahsil oladilar.

KAFEDRA TARIXI

Institutda jarrohlik kafedralarini tashkil etilishi ukrainalik taniqli olim, mashhur jarroh Aleksandr Yakovlevich Yasnogorodskiy (1956 y.) nomi bilan bevosita bog‘liqdir. A.Ya. Yasnogorodskiy viloyat shifoxonasida jarrohlik kafedrasini tashkil etish va jarrohlikni ilmiy va amaliy rivojlantirish maqsadida taklif etilgan. U jarrohlik kafedrasini tashkil etish bilan birgalikda atrofiga qobiliyatli shogirdlarni to‘plab, Andijon jarrohlik maktabiga asos soldi.

O‘zbekistonda va sobiq ittifoqda taniqli yetuk jarrohlarning professor I.Yu Ibadov., dotsentlar T.U. Alimov, M.X.Jaxongirov, N.A.Udachina, S.A.Grigoryans, N.A Grigoryan, U.A.Ishonxodjayev, S.P. Xakimov, M.A.Zaxidov, hamda boshqa

ko‘plab amaliyotchi jarrohlar shu kafedradan yetishib chiqqan bo‘lib, o‘z faoliyatlari bilan jarrohlikni ilmiy va amaliy jihatdan rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shganlar.

A.Ya. Yasnogorodskiy vafotidan so‘ng kafedraga professor I.Yu. Ibadov 1969-1981 yillar davomida rahbarlik qilgan. Keyinchalik kafedra ADTI klinikasining III-jarrohlik bo‘limiga ko‘chib, Gospital jarrohlik kafedrasini deb nomlangan.

U serqirra faoliyati davomida u o‘zini mohir jarroh, zaxmatkash olim, chuqur bilimli klinitsist hamda o‘z shogirdlari qalbida insonparvarlik va hamdardlik tuyg‘ularini uyg‘ota olgan iqtidorli pedagog sifatida namoyon etdi.

1981-yildan kafedra mudiri etib professor R.M. Nurmuhammedov tayinlandi. Professor R.M. Nurmuhammedov institut rektorlik lavozimida ishlash bilan birga, o‘quv jarayoniga butunlay boshqacha uslubiy yondashdi. Kafedra xodimlari taniqli olim atrofida jipslashdi. Kafedra xodimlarining ilmiy izlanishlariga katta yo‘l ochildi. Murakkab tashrix turlari amaliyotga kirgizildi. Farg‘ona vodiysida birinchilardan bo‘lib kafedra bazasida klinikada yagona endoskopiya markazi (1981y.), lazer nurlaridan foydalanish markazi (1988y.) va endojarrohlik markazi ochildi.

1988-1992 yillarda kafedraga professor R.Yu. Omirov rahbarlik qildi. Professor R.Yu. Omirov ilmiy faoliyati serqirra bo‘lib, ko‘plab xirurgiya muammolarini qamrab olgan. Uning 400 dan ortiq ilmiy maqolalari, monografiyala va uslubiy qo‘llanmalarida buqoq kasalligining xirurgik davolash masalalari, o‘t-tosh kasalligi, siniqlarni tezroq bitkazish va keyingi yillarda ba‘zi kasalliklarning immunologik talqini kabi dolzarb masalalar ko‘rib chiqilgan. Kafedra xodimlari bilan ilmiy tadqiqot ishlarini samarali olib borish professor faoliyatida asosiy o‘rinni egallagan. Olim faoliyati davomida 3 ta doktorlik va 30 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilgan.

R.Yu. Omirov nafaqat yetuk olim, balki usta jarroh, chuqur bilimli klinitsist hamdir. Uning toza qalbi va xassos qo‘lidan davo topgan umrbod minnatdor odamlar sanoqsiz. “Sog‘liqni saqlash a’lochisi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan shifokor” unvonlari fikrimizga dalildir.

1993-2013 yillarda esa, kafedrada professor F.N. Nishonov mudir lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. U o‘z faoliyati davomida ko‘plab shogirdlarni tarbiyaladi, yosh olimlarni yetishib chiqishiga katta imkoniyat yaratdi. Professor F.N. Nishonov rahbarligida o‘nlab kandidatlik va doktorlik ishlari respublikada hamda Rossiya Federatsiyasining nufuzli dargohlarida himoya etildi. Respublikada “Professor F.N. Nishonov maktabi” ni yaratdi. Uning shogirdlari hozirda ham Respublikamizning barcha viloyatlarida faoliyat olib bormoqdalar. Professor F.N. Nishonov kafedradagi faoliyati davomida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan birga o‘quv jarayoniga va uni rivojlanishiga jiddiy e‘tibor berdi. Kafedrada tashkil etilgan «Talabalar ilmiy jamiyati» a‘zolaridan Respublika fan olimpiadasi qatnashchilari faxrli o‘rinlarni egalladilar. Prezident va Ibn Sino davlat stipendiatlari yetishib chiqdi.

2013-yilga kelib kafedraga professor F.N. Nishonovning shogirdi dotsent N.E. Bozorov mudir etib tayinlandi. U o'z faoliyati davomida ko'plab shogirdlarni tarbiyaladi, yosh olimlarni tarbiyaladi.

Urologiya kursi kafedraning tarkibida bo'lib, ADTIning eng namunali kafedralaridan biri hisoblanadi. Urologik bemorlarga malakali yordam berish maqsadida hamda Andijon davlat tibbiyot instituting bazasi sifatida talabalarini o'qitish uchun 1958 yilda Andijon shahar 1-shifoxona qoshida urologiya bo'limi ochilgan. Urologiya kursini birinchi mudiri bo'lib dotsent Ginzburg Leonid Abramovich bo'lgan.

1963-yili urologiya kursi mudiri qilib dotsent K. Umarov tayinlangan. 1964 yildan fakultativ xirurgiya kafedrasida urologik kurs mudiri bo'lib dotsent Axmedjayeov U.X. tayinlangan. Kafedra mudiri bo'lib tanlov orqali professor Xolmatov O.X saylandi.

Shahar shifoxonasidagi urologiya bo'limi avval 15 koykaga ega bo'lgan bo'lsa, keyinchalik 30 koykaga kengaytirilgan. Bo'limda yuqori va pastki siydik yo'llarida va jinsiy a'zolarida bo'lgan barcha operatsiyalar bajarilgan. Kattalar qatorida yosh bolalarda ham jarrohlik amaliyotlari bajarilgan. Konsultativ urologik yordam faqat shahar va viloyat miqyosida bo'lmay balki Farg'ona vodiysini qamrab olgan.

1978-yili urologiya kursi rahbari bo'lib Eshonxo'jayev O'.A. tayinlangan. Qisqa muddatga urologiya kursi, urologiya kafedrasini bo'lib, shu vaqtda urologiya kafedra mudiri bo'lib dotsent O'. Eshonxo'jayev faoliyat olib borgan. 1973-yil aprel oyida urologiya kursi yangi ochilgan ADTI klinikasiga o'quv baza hisobida o'tkazilgan. Urologiya bo'limi 60 koykaga kengaytirilib butun Farg'ona vodiysi aholisiga urologik yordam berish vazifasi yuklatilgan.

2000-yildan boshlab urologiya kursiga t.f.d. professor A.Q.Shadmanov rahbarlik qilib kelmoqda. Professor A.Q.Shadmanov tashabbusi bilan 2005 yilda urologiya kursiga klinik ordinatura bazasi ochildi, 2007 yilda esa magistratura o'quv bazasi tashkil qilindi va "professor A.Q.Shadmanov maktabi"ni yaratdi. Hozirgi kunda urologiya kursida yetuk urolog shifokorlar tayyorlanib Farg'ona vodiysi aholisiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda. Uning shogirdlari Respublikamizning barcha viloyatlarida faoliyat olib bormoqda. Professor A.Q.Shadmanov kafedrada faoliyati davomida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan birga o'quv jarayoniga va uni rivojlanishiga jiddiy e'tibor berdi. Kafedrada tashkil etilgan "Urologiya" to'garagi va talabalar ilmiy jamiyati a'zolaridan Respublika nufuzidagi fan olimpiadasi qatnashchilari faxrli o'rinlarni egalladilar, Urologiya bo'limida tashkil qilingan "Endourologiya bo'limi"ni rivojlanib taraqqiy etishida ilmiy hamda amaliy yordam ko'rsatib Respublikada nufuzli bo'limlar qatoriga olib chiqdi. Hozirda bu bo'limda barcha endoskopik tashrixlar amalga oshirilmoqda.

Anesteziologiya-reanimatologiya kurs mudiri bo'lib dotsent M.M. Otaboyev boshqargan. Shu yillarda Yu. Dusmatov assistentlik lavozimida ishlab kelgan.

1975-yil M.A. Maxmudjanov assistentlik lavozimida ishlab 1978-yilda «Reovazografiya v dinamike i otsenke lecheniya zabolevaniy ven nijnix konechnostey» nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1979-1981 yil mobaynida kafedra mudiri lavozimida dotsent Udachina N.A. faoliyat olib borgan. 1983-yildan 1999-yilgacha kafedra mudiri lavozimida dotsent M.A. Maxmudjanov ish olib bordi. Shu yillari kafedraning vakant lavozimlariga Djurabayeva T.B., Paxmurin I.R., Mamatov B.Yu., Melkumov L.A., Muminov B.E., Hamidov A.M., Mamadayev R.E. tayinlandilar. 1998-yilda Mamatov B.Yu.«Limfotropnaya pretraxealnaya antibiotikoterapiya v profilaktike i lechenii bronxolegichnykh oslojneniy v posleoperatsionnom periode» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va 2001-yilda dotsentlik unvoni berildi.



Kafedrada quyidagi olimlar yetishib chiqqanlar: t.f.d., professorlar Siddiqov O.S., Maxkamova M.N., O‘rinov A.Ya., Xodjimatov G‘.M., Shadmanov A.Q., Ibragimov S.S., Botirov A.K., t.f.d., dotsentlar Tadjibayev Sh.A., Qoraboyev U.M., t.f.n., dotsentlar Xakimov D.M., Raxmanov B.J., Sirojiddinov K.B., Abdullajanov B.R., Hamdamov X.X., fan nomzodlari Soibjonov A., Usmonov X.A., Turdiboyev M., Abdullayev U.U., Xakimov I.S. va boshqalar.

KAFEDRA BUGUNGI KUNDA

2018-yilga kelib kafedra mudiri etib professor F.N. Nishonov tayinlandi. Hozirda kafedra «Xirurgiya va urologiya kafedrası» deb nomlanadi.



Kafedra jamoasi

Kafedrada hozirgi kunda 2 nafar professor (Nishanov F.N., Shadmanov A.Q.), 5 ta dotsent (Bozorov N.E., Abdullajonov B.R., Rustamov U.M., Tursunov B.Q.), katta o'qituvchi Boboyev R.A., t.f.n. assistentlar Hamidov F.Sh., Usmonov U.D, Sadikova D.I., assistentlar Otaqo'ziyev A.Z., Nishonov M.F., Egamov S.Sh., Xojimetov D.Sh., , Hamrayev O.A., Ergashev B.A., Yo'ldashev X.J. lar faoliyat olib bormoqdalar. 3 nafar mustaqil ilmiy izlanuvchi, 16 nafar magistrlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Kafedrada o'qitilayotgan fanlar

Jarrohlik kasalliklari fani bo'yicha davolash fakulteti va kasbiy ta'lim yo'nalishining 6-7 kurs talabalari, stomatologiya fakultetining 4-kurs talabalari tahsil oladilar.

Fakultet/ kurs	O'quv yuklamasi hajmini auditoriya mashg'ulotlari turiga ko'ra quyidagicha taqsimlangan (soatlarda)			
	Amaliy mashg'ulot	Ma'ruza	Mustaqil ta'lim	Jami
Davolash va kasbiy ta'lim / 6-kurs	84	8	43	135
Davolash va kasbiy ta'lim / 7-kurs	160	20	72	252
Stomatologiya / 4-kurs	71	14	68	153

Urologiya fani bo'yicha davolash fakulteti va kasbiy ta'lim yo'nalishining 4 hamda 6- kurs talabalari tahsil oladilar.

Fakultet/ kurs	O'quv yuklamasi xajmini auditoriya mashg'ulotlari turiga ko'ra quyidagicha taqsimlangan (soatlarda)			
	Amaliy mashg'ulot	Ma'ruza	Mustaqil ta'lim	Jami
Davolash va Kasbiy ta'lim / 4-kurs	55	10	47	112
Davolash va Kasbiy ta'lim / 6-kurs	30	-	20	50

Kafedra professor-o'qituvchilarni ro'yxati

№	F.I.Sh.	LAVOZIMI
Jarrohlik		
1	Nishonov F.N.	Kafedra mudiri
2	Bozorov N.E.	Dotsent
3	Abdullajonov B.R.	Dotsent
4	Tursunov B.K.	Dotsent
5	Hamidov F.Sh.	Assistent
6	Usmonov U.D.	Assistent
7	Otakuziyev A.Z.	Assistent
8	Egamov S.Sh.	Assistent
9	Nishonov M.F.	Assistent
10	Xojimetov D.Sh.	Assistent
Urologiya		
11	Rustamov U.A.	Dotsent
12	Boboyev R.A.	Katta o'qituvchi
13	Sodiqova D.I.	Assistent
14	Hamrayev O.M.	Assistent
15	Yo'ldashev X.J.	Assistent

Kafedrada kompleks reja asosida quyidagi yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib borilmoqda:

- Jarrohlikda laparoskopik usullarni amaliyotga tadbiiq etish (o't yo'llari jarrohligi va urgent jarrohlik).
- Oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligini davolash va asoratlarini oldini olish, davolash natijalarini yaxshilash, tashrix usullarini mukammallashtirish.
- Qalqonsimon bez kasalliklarini davolash jarrohlik usullarini mukammallashtirish, kasallik tarqalishini o'rganish va davolash natijalarini yaxshilash.
- Portal tizim xirurgik kasalliklarini jarrohlik usulida va davolash natijalarini yaxshilash.
- Jigar va o't yo'llari kasalliklarini jarrohlik yo'li bilan davolanish usullarini takomillashtirish, laporoskopik va endoskopik usullarni rivojlantirish, yaqin va uzoq natijalarni yaxshilash.
- Katta va gigant residiv ventral churralarda davolash usullarini takomillashtirish, asoratlarini oldini olish, davolash natijalarini yaxshilash.

- Jigar xirurgik kasalliklari va ularning asoratlarini kaminvaziv davolash usullarini takomillashtirish.
- Yo‘g‘on ichak va to‘g‘ri ichak, ingichka ichaklar kasalliklarini davolash usullarini takomillashtirish, asoratlarini oldini olish, davolash natijalarini yaxshilash.
- Ko‘krak qafasi kasalliklari davolash usullarini yaxshilash.
- Periferik qon tomir kasalliklarini davolash usullarini takomillashtirish.

Kafedraning grant va xo‘jalik shartnomalari asosida olib borayotgan ishlari

№	F.I.Sh.	Grant ishlari	Xo‘jalik shartnomalar (qaysi tashkilot bilan shartnoma tuzilgani to‘liq ko‘rsatilsin)	Bajarilgan vaqti, muddati
1	Nishonov F.N. Abdullajonov B.R. Nishanov M.F. Otakuziyev A.Z. Xojimetov D.Sh.	Vnedreniye sposoba issecheniya azv dvoynoy lokalizatsii oslojnennoy perforatsiyey, pri yazvennoy bolezni dvenadsatiperstnoy kishki	RShTYoIM Andijon filiali xirurgiya bulimi, ADTI klinikasi jarrohlik bo‘limlari	2017-2018-yillar

Kafedrada chop etilgan uslubiy qo‘llanma va uslubiy ko‘rsatmalar

№	F.I.Sh.	Uslubiy qo‘llanmani nomi va nashriyot nomi	Nashrga tavsiya etgan vazirlik yoki kengash nomi, sanasi, qaror raqami
1.	Nishanov M.F.	Выбор хирургической тактики при кровотокающих пилородуоденальных язвах.	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Andijon davlat tibbiyot instituti
2.	Nishonov F.N. Nishanov M.F.	Xirurgicheskaya taktika i vybor metoda operatsii pri stenoziruyushchix piloroduodenal'nykh yazvax	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Andijon davlat tibbiyot instituti
3.	Nishanov M.F. Xojimetov D.	Sovremennyye aspekty xirurgicheskogo lecheniya probodnykh piloroduodenal'nykh yazv	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Andijon davlat tibbiyot instituti

Kafedradagi ixtiro, ratsionalizatorlik takliflar va amaliyotga tadbiq etilgan ishlar

№	F.I.Sh.	Ixtiro nomi
1	Назыров F.G., Nishanov M.F. Nishonov F.N., Abdullajonov B.R. Tursunov B.K.	Sposob rezeksii jeludka i nalojeniya gastroduodenoanastomoza
2	Nishonov F.N., Otakuziyev A.Z. Abdullajonov B.R., Nishanov M.F.	Sposob intraoperatsionnoy obrabotki exinokokkovyx kist
3	Nishanov M.F., Nishonov F.N., Egamov S.Sh., Rustamov J.A., Botirov J.A.	Programma lecebnoy taktiki vedeniya bolnyx s yazvennymi iloroduodenalnymi krvotecheniyami.
4	Nishanov M.F., Nishonov F.N., Abdullajonov B.R., Usmonov U.D., Karimov M.A., Egamov S.Sh., Xojimetov D.Sh.	Programma lecebnoy i diagnosticheskoy taktiki lecheniya perforativnyx yazv.
5	Nishanov M.F., Nishonov F.N., Bozorov N.E., Usmonov U.D., Otakuziyev A.Z., Karimov M.A., Egamov S.Sh.	Programma lecebnoy taktiki pri stenoziruyushix piloroduodenalnyx yazv.

Xirurgiya va urologiya kafedrasi talabalar ilmiy jamiyatini 2017-yilgi respublika jarrohlik fan olimpiyadasi qatnashchilari haqidagi hisobot

№	F.I.Sh.	Olimpiada	Olimpiada o'tkazilgan shaharni nomi	Bulib utgan vaqti
1	Nazarov Xumoyun Xalimjon ugli davolash fakulteti 7-kurs talabasi	3-darajali diplom	Samarkand davlat tibbiyot instituti	2017-yil. May